Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari

Abdullayeva Shaxnoza Esonovna
Farg‘ona davlat universiteti
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Narkabilov Baxtiyor Po‘latovich
“Tash Farm Tehnics Service” MCHJ rahbari

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes o‘rni, uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Hududiy xususiyatlarning kichik biznes rivojiga ta’siri tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar, jumladan, ma’muriy tartiblarni soddalashtirish, kredit tizimini takomillashtirish, investitsiyalarni jalb etish va innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, biznes muhiti, raqobatbardoshlik, texnologiya, strategiya

Kichik biznes mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Kichik biznesni rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu sektor zarur raqobat muhitini yaratadi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga va aholi daromadlarining o‘sishiga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud, chunki xalqimiz azaldan kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanib kelgan: kulollar, zargarlar, qandolatchilar, to‘quvchilar va boshqa hunarmandlar uy anjomlari, asboblar, zargarlik buyumlari, oltin kashtalar, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa mahsulotlarni yakka tartibda yoki o‘z oila a‘zolari bilan ishlab chiqarishgan. Ushbu mahsulotlarning asosiy qismi Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sotuvga chiqarilgan. Kichik biznesning rivojlanishida qulay tabiiy-iqlim sharoiti, xalqimiz mehnatsevarligi, boy xomashyo resurslari muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ushun mavjud imkoniyatlar hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan, chunki bu o‘sha hududning ma’lum bir xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, hududning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoiti, aholi soni, tabiiy resurslari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy xususiyatlari ma’lum bir hududni boshqa hududlardan ajratib turuvchi muhim jihatlar bo‘lib hisoblanadi. U yoki bu jihatning ustunligi hududlarda kickik biznesning tegishli yo‘nalishlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududidy xususiyatlarni tahlil qilish asosida kichik biznesni rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ham topish mumkin. Kichik biznesni rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- korxona faoliyati samaradorligi uchun zarur bo‘ladigan aylanma mablag‘larning yetishmasligi;
- kredit olishda shartlarning murakkabligi, juda yuqori stavkalar belgilanganligi va uzoq muddatli kreditlarni olish qiyinligi;
- davlat tomonidan yuqori darajadagi nazoratning o‘rnatilganligi.

Bu kabi to‘siqlarning bartaraf etilishi yoki hech bo‘lmaganda soddalashtirilishi kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratilishini ta’minlaydi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlanishini rag‘batlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- tadbirkorlik faoliyatining turli bosqichlarida ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish;

- kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;
- davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish;
- hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;
- kichik biznes subyektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga, boshlang‘ich sarmoyani shakllantirishga kreditlar ajratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun o‘rta va uzoq muddatli kreditlar berish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni keng jalb etish va yo‘naltirish;
- kichik biznesning texnik darajasini oshirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion jarayonlarni kuchaytirishni ta’minlash;
- samarasiz va to‘lovga layoqatsiz korxonalarning mol-mulkidan kichik biznesning resurs ta’minoti sifatida foydalanish;
- kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga, eksportga mo‘ljallangan mahsulotini jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish;
- yirik va o ‘rta korxonalarning kichik korxonalar bilan o‘zaro hamkorligining samarali mexanizmlarini joriy etish;
- kichik tadbirkorlik subyektlari uchun lizing xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kichik biznes subyektlarini axborot bilan ta’minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarida ularga konsultativ ko‘mak berish tizimini yanada rivojlantirish;
- isloh qilinayotgan yirik va o‘rta korxonalar negizida kichik korxonalar tashkil etish.

Ushbu tadbirlar kichik biznesni rivojlantirishda hududiy muammolarni aniq hal qilishga olib keladi. Albatta bu kabi tadbirlar tegishli qonunlarda yoki davlat dasturlarida o‘z aksini topadi va ularning joriy etilishi ma’lum bir samara berishi tabiiy.

Hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta’minlash, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash, kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta’minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish asosida kichik biznes sohasining yanada gurkirab rivojlanishi uchun zamin yaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi lisenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek,

biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida». PF-5409-son. 11 apr., 2018 y.
2. Aripov O.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muammolari. //J. Jamiyat va boshqaruv. №4. −T.: 2009. 69−70 b.